

# XORIJ PSIXOLOGIYASIDA O'QISH MOTIVLARINING NAZARIY TAHLILI

**Samandarova Rayhona Ilhom qizi**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy psixologiyada o'qish motivatsiyasi masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsiyaning asosiy yo'nalishlari, jumladan, bihevioristik, gumanistik, kognitiv va sotsial-motivatsion nazariyalar keng ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy olimlarning ta'lif motivatsiyasi bo'yicha tadqiqotlari, motivatsiyani oshirish strategiyalari va ularning amaliy ta'lif jarayonida qo'llanilishi muhokama qilinadi. Maqolada motivatsiyaning ichki va tashqi omillari, o'qish jarayonidagi individual va ijtimoiy faktorlar ham yoritilgan. Ushbu maqola pedagoglar, psixologlar va ta'lif sohasida faoliyat yurituvechi tadqiqotchilar uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar:** O'qish motivatsiyasi, bihevioristik nazariya, kognitiv yondashuv, gumanistik psixologiya, ichki va tashqi motivatsiya, o'z-o'zini aniqlash nazariyasi, shaxsiy o'sish va motivatsiya, pedagogik psixologiya, ta'lif va motivatsiya, ijtimoiy ta'sir va o'qish.

Motivatsiya – bu insonning harakat qilishga undovchi ichki va tashqi omillarning majmuasidir. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati va faolligi ularning motivatsiyasiga bevosita bog'liq. Xorij psixologiyasida ta'lif motivatsiyasi bo'yicha ko'plab nazariyalar ilgari surilgan bo'lib, ular o'quvchilar va talabalar faoliyatining sabablari, maqsadlari va natijalari qanday shakllanishini tahlil qiladi.

Ushbu maqolada xorij psixologiyasida o'qish motivatsiyasiga oid asosiy nazariyalar, ularning farqlari va amaliy qo'llanilishi keng yoritiladi. Xususan, Gumanistik, kognitiv, bihevioristik va sotsial-motivatsion nazariyalar asosida ta'lif motivvlari tahlil qilinadi.

Motivatsiya – bu insonning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qilishi va muayyan maqsadlarga intilish jarayonidir. O'quv motivatsiyasi esa o'quvchining bilim olishga qanchalik qiziqishi, tashabbus ko'rsatishi va maqsad sari harakat qilishini belgilovchi omillardir.

Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv motivatsiyasi ikki asosiy turga bo'linadi:

Brinchisi – ichki motivatsiya (Intrinsic Motivation) – bilim olish jarayonining o'zi zavqli va qiziqarli bo'lgani uchun o'qishga intilish.

Ikkinchisi – tashqi motivatsiya (Extrinsic Motivation) – mukofot, baho, ijtimoiy maqom yoki jazodan qochish kabi tashqi omillar ta'sirida o'qishdir.

Biheviorizm psixologiyada eng qadimiyo yo'nalishlardan biri bo'lib, motivatsiyani tashqi rag'batlantirish va jazolash tizimi orqali tushuntiradi. Ushbu nazariyaning asosiy vakillari J. B. Watson, B. F. Skinner va E. L. Thorndike hisoblanadi. Skinnerning operant shartlanish nazariyasi ga ko'ra, inson xatti-harakati mukofot yoki jazo orqali shakllanadi.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Agar o‘quvchi yaxshi baho yoki maqtov olsa, u keljakda ham o‘qishga intiladi. Thorndikening effekt qonuni esa o‘quvchilarning o‘z harakatlariga berilgan baholarga qarab motivatsiyasi oshishi yoki pasayishini ta’kidlaydi.

Gumanistik yondashuv o‘quvchini faqat tashqi rag‘batlantirish bilan emas, balki uning ichki ehtiyoj va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘qishga jalg qilishni taklif qiladi. A. Maslouning "Ehtiyojlar iyerarxiyasi" nazariyasiga ko‘ra, inson o‘qishga motivatsiyaga ega bo‘lishi uchun avvalo uning asosiy ehtiyojlari (ovqat, xavfsizlik, ijtimoiy aloqa) qondirilgan bo‘lishi lozim. C. Rogersning shaxsiy o‘sish nazariyasi esa o‘quvchilarga individual yondashish va ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydi.

Kognitiv psixologiya motivatsiyani insonning bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ushbu nazariyaning asosiy vakillari J. Piaget, L. Vygotsky va A. Bandura hisoblanadi. Piagetning bilish taraqqiyoti nazariyasi ga ko‘ra, o‘quvchilarning motivatsiyasi ularning atrof-muhitni tushunish va bilishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji bilan bog‘liq. Vygotskyning "Yaqin taraqqiyot zonasasi" nazariyasi esa o‘quvchilar qiyinchilik darajasi optimal bo‘lgan vazifalarda eng yuqori motivatsiyaga ega bo‘lishlarini ko‘rsatadi. A. Banduraning "O‘z-o‘zini samarali boshqarish" nazariyasi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi.

Sotsial-motivatsion nazariya – ushbu yondashuv motivatsiyani ijtimoiy muhit bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Dechi va Ryanning O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi ga ko‘ra, o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi uchta asosiy ehtiyoj qondirilganda rivojlanadi:

1. Avtonomiya – mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati
2. Kompetensiya – o‘zini muvaffaqiyatli his qilish
3. Aloqadorlik – ijtimoiy muhit bilan bog‘lanish hissi

Veinerning atributsiya nazariyasi esa o‘quvchilarning o‘z muvaffaqiyatsizliklarini qanday tushuntirishlari ularning kelajakkagi motivatsiyasiga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Xorij psixologiyasida ta’lim motivatsiyasini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy yondashuvlar taklif etiladi:

Differensial yondashuv – har bir o‘quvchining individual ehtiyoj va qobiliyatlarini inobatga olish.

Gamifikatsiya – o‘qish jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish.

Ijodiy yondashuv – muammoli ta’lim, loyihamiy ishlar va mustaqil tadqiqotlarni qo‘llash.

Ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash – o‘quvchilarga shaxsiy maqsadlarini anglash va ularga erishish imkoniyatini berish.

O‘z-o‘zini baholash – o‘quvchilarning o‘z yutuqlarini o‘lchash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, xorij psixologiyasida o‘qish motivatsiyasi bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos jihatlarga ega. Bihevioristik nazariyalar

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tashqi rag‘batlantirishga urg‘u bersa, gumanistik va kognitiv nazariyalar ichki ehtiyoj va bilim olishga bo‘lgan qiziqishni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Sotsial-motivatsion nazariyalar esa o‘qish jarayonida ijtimoiy muhitning rolini ta’kidlaydi.

Shu boisdan, ta’lim tizimida motivatsiyani oshirish uchun kompleks yondashuv qo‘llanilishi lozim. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuviga ham katta hissa qo‘shadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiyl Psixologiya
2. G“oziyev E “Umumiyl psixologiya” 1-kitobi Toshkent 2004
3. Baddeley, A. (2007). Working Memory, Thought, and Action. Oxford University Press.
4. 1.Deci, E.L., Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Springer Science & Business Media.
5. Schunk, D. H., Pintrich, P. R., & Meece, J. L. (2014). Motivation in Education: Theory, Research, and Applications. Pearson.
6. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. W. H. Freeman.
7. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396.
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
9. Skinner, B. F. (1953). Science and Human Behavior. Macmillan.
10. Weiner, B. (1986). An Attributional Theory of Motivation and Emotion. Springer.
11. Ryan, R. M.,Deci, E. L. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist, 55(1), 68-78.
12. Pintrich, P. R. (2003). A Motivational Science Perspective on the Role of Student Motivation in Learning and Teaching Contexts. Journal of Educational Psychology, 95(4), 667-686.
13. Dweck, C. S. (2006). Mindset: The New Psychology of Success. Random House.
14. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)